



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR- MART

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KORSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- aprel holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 35 106 tani tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning mart oyida jami 1291 ta yangi qurilish korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalariga nisbati 3,7 % ni tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya‘ni 7 017 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 20,0 % i Toshkent shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1-aprel holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Toshkent sh.	7 017
Toshkent	3 014
Farg‘ona	2 927
Qashqadaryo	2 923
Samarqand	2 509
Buxoro	2 479
Surxondaryo	2 407
Andijon	2 298
Qoraqalpog‘iston R.	1 821
Namangan	1 737
Xorazm	1 700
Jizzax	1 579
Navoiy	1 491
Sirdaryo	1 204

19 345

4 772

10 989

Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Toshkent viloyatida 3 014 ta (respublika bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 8,6 %), Farg‘ona viloyatida – 2 927 ta (8,3 %) qurilish korxonalarini mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-mart uchun)

2023- yilning yanvar-mart oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 27 564,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi.



Oldingi yilning mos davriga nisbatan



*Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.*



# 2023- yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati,  
mlrd. so'm va foizda




2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (6 838,7 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (2 920,3 mlrd. so'm) va Samarqand viloyatida (1 735,2 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,6 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,8 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,6 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,4 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## 2023- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,2 % i yoki 18 518,9 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 5 347,7 mlrd. soʻm ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 28,9 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 8 883,7 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 2 031,7 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 23,1 % ni tashkil etdi.

### Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



## 2023- yilning yanvar-mart oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (3 912,9 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (1 528,5 mlrd. so'm), Samarqand viloyati (1 185,0 mlrd. so'm) va Farg'ona viloyatida (1 205,2 mlrd. so'm) qayd etildi.



# 2023- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

**Jami bino va inshootlarni qurish – 18 909,3 mlrd. so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 24,8 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davridagi darajada saqlanib qolib, 49,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 25,3 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 80,0 % i), Farg'ona viloyati (77,3 %) va Andijon viloyati (75,1 %) da kuzatildi.



Jizzax viloyati  
80,0 %



Farg'ona viloyati  
77,3 %




Navoiy viloyati  
75,3 %

## 2023- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

### Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm




**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,3 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,6 % (5,1 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi va o'zgarishsiz qoldi.

# 2023- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda




*Maʼlumot uchun:*  
Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 66,2 % i), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (28,2 %) va Xorazm viloyati (27,0 %)da kuzatildi.



**69,2 %**  
Samarqand viloyati



**28,2 %**  
Qoraqalpogʻiston Respublikasi




**27,0 %**  
Xorazm viloyati

# 2023- yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % punktga ko'paydi va 18,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 81,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % punktga kamaydi.

# 2023- yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



*Ma'lumot uchun:*  
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 20,3 % i), Toshkent shahri (18,4 %) va Toshkent viloyatida (17,3 %) kuzatildi.



**20,3%**  
Namangan viloyati




**18,4 %**  
Toshkent sh.



**17,3%**  
Toshkent viloyati


# 2023- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**104,6 %**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**106,4 %**




Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**98,0 %**


# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 439,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,1 % ga kamayib, 23,4 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



## Jamiga nisbatan ulushi



21,2 %

Qashqadaryo viloyati



19,5 %

Buxoro viloyati



19,1 %


Samarqand viloyati

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 21,2 % i), Buxoro viloyati (19,5 % ) va Samarqand viloyatida (19,1 %) qayd etildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,3 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etgan holda 16 339,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



# 2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar


## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻm



## Jamiga nisbatan ulushi



Toshkent shahri



Toshkent viloyati




Samarqand viloyati

*Maʼlumot uchun:* koʻrib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (4 932,1 mlrd. soʻm), Toshkent viloyatida (1 563,5 mlrd. soʻm) va Samarqand viloyatida (1 256,4 mlrd. soʻm) qayd etildi.

# 2023- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 17,3 % ni yoki 4 785,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ni tashkil etdi. Shundan 3 625,1 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,7 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 669,3 mlrd. soʻmni va 105,7 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 490,7 mlrd. soʻmni va 85,3 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



**830,8** mlrd. soʻm  
Toshkent viloyati



**622,2** mlrd. soʻm  
Toshkent shahri




**484,9** mlrd. soʻm  
Buxoro viloyati


*Maʼlumot uchun:* koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (830,8 mlrd. soʻm), Toshkent shahrida (622,2 mlrd. soʻm) va Buxoro viloyatida (484,9 mlrd. soʻm) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-mart oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 739,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 26 285,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 2,7 % va 97,3 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,6 % i), Surxondaryo viloyatida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,2 % i) va Toshkent shahrida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,6 % i) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari**

### **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**  
**Tel. 71 203-80-00 (1161)**